

## PEDAGOG KADRLARNI INNOVATSION G'OYALARINI TA'LIMGA TADBIQ ETISHDA BOLA SHAXSIGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM

**Yuldasheva Maxsudaxon**

Asaka pedagogika kolleji o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Bolani 6-7 yoshga yetganda, u kelajakda o'zini namoyon qilish uchun hozirgi paytda faoliyatni amalga oshirish uchun o'zini o'tmishda eslab qoladi. Shu jihatdan ham ushbu bosqich bola hayotining deyarli 70 foizini tashkil qiladi. Ya'ni shu yoshlar oralig'ida bola atrofidagi olamdan hayoti davomidagi yarimdan ko'p informatsiyani oladi. Yapon iqtiboslarida aytilganidek, bu yoshda bolaga podshohdek munosabatda bo'li sh kerak. Chunki ushbu bosqich bola psixologiyasi uchun muhim voqealarga boy bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim texnologiyasi, zamonaviy tarbiyachi- kelajak bunyodkori, yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ilmiy-tadqiqot muassasalari, bola kompetensiyalari, tadqiqot, targ'ibot, muloqot madaniyati, tashkilotchilik.

**Ta'lim texnologiyasi** – bu jarayonda ishtirok etuvchi tahsil oluvchilar ongi, his tuyg'ulari va xarakteriga maqsadga muvofiq ta'sir etib, ularda bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar tizimini shakllantirish san'atidir.

Zamonaviy tarbiyachi (o'qituvchi) - kelajak bunyodkori, yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisidir.

Zamonaviy ta'lim nazariyasi tarbiyachi (Pedagog-o'qituvchi)larni o'quv jarayonining rahbari, tashkilotchisi deb bilib, pedagogik jarayonni boshqarishda chuqur bilimga, yuksak mahoratga, tashabbuskorlik qobiliyatiga, pedagogik muloqot madaniyatiga ega bo'lishni, kelajakni ko'ra olishdek yoshlar o'rtasida kasbiy salohiyatga ega tarbiyachilarni izlab topishda mas'uliyatli vazifani amalga oshirishda ta'limning yangicha usulidan foydalana olishi zarurligini taqozo etadi.

Mahoratli, salohiyatli, tadbirkor, tashabbuskor yoshlarni aniqlash jamiyatda o'rmini topishga va rag'batlantirish maqsadida ko'rik-tanlovlar, ijodiy ko'rgazmalar, festivallar, kontsertlar, amaliy o'qishlar, konferensiyalar, ochiq eshiklar kuni, uchrashuvlar, seminarlar tashkil etish hamda o'tkazish, yoshlarga oid xalqaro tajriba almashish, iqtidorli va iste'dodli yoshlarni ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida tajribalar olib borish, xorijiy mamlakatlarda o'qitish, qayta tayyorlash va amaliyotni o'tkazish dasturlaridan tanlov asosida foydalanishini ta'minlash barobarida komp'yuter va multmediya tizimlari boshqa o'qitishning texnik vositalarini ta'lim berishda tadbqiq etish, internet tarmog'idan foydalanish ko'nikmalarini o'stirish muximdir.

Ta'limning ilg'or usullaridan foydalanib bo'lajak yetuk mutaxassislarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda pedagog (tarbiyachi) e'tiborga olish kerak bo'lgan omillar quyidagilar:

**Birgalikdagi faoliyat (tarbiyachi va bolalar).**

**Bolalar bilan o'zaro munosabati (tarbiyachi, ota-onalar va bolalar).**

**Shaxsga yo'naltirilgan muloqot uslubi (biz hammamiz boshqachamiz, ammo barchamiz tengmiz).**

Pedagog bolalar bilan o'zaro munosabatda vaziyatli-shaxsiy aloqa turidan, vaziyatli-ishbilarmon muloqot turidan va vaziyatli bo'lmagan ish-bilarmonlik muloqot turidan foydalanadi.

MTT pedagoglari uchun yordam beradigan:

“Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o’quv dasturlarini ishlab chiqish”.

“O’quv jarayonini shaxsga yo’naltirilgan yondashuv asosida rejalashtirish”.

“O’yin orqali ta’lim olish”.

“Maktabgacha ta’limda ta’lim jarayonini individuallashtirish. Alohida ehtiyojli bolalar inklyuziyasi”.

“Oilalar va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik”.

“Kuzatish va baholash”.

uslubiy qo’llanmalari tarbiyachi faoliyatini yanada takomillashtirishda ahamiyat kasb etadi.

Chet el texnologiyalaridan olingan o’rganilib qayta ishlangan darsga tadbiiq etilayotgan bu metodlar yordamida ilg’or pedagogik texnologiyani amalga qo’llashni o’rgatuvchi darsliklar, o’quv qo’llanmalari, o’qitish materiallari to’plami, ta’limning eng ilg’or tajribalardan foydalanib, ta’limda sifat va samaradorlikka erishish uchun kasb-hunar kollejlari o’quvchilarida har tomonlama bilim, ko’nikma, malakalarini shakllantirish kerak. Yoshlarni ilmiy, ma’naviy dunyoqarashlarini tarkib toptirish, ijtimoiy faolligini o’stirish, erkin fikr yurita olishga o’rgatish, mantiqiy tafakkurini o’stirish, mustaqil bilim olishlariga erishish, har tomonlama yetuk kadrlarni barkamol shaxs sifatida kamol topishlariga yordam berib bolalarni ijodiy qobiliyatlarini aniqlash, o’qituvchi va bo’lajak tarbiyachilarni hamda tarbiyalanuvchilarni o’zaro hamkorligini shakllantirish nazariyani amaliyotga tadbiiq etish alohida O’qituvchidan kasbiy mahoratni yangilikni ta’lim jarayoniga tinimsiz qo’llab borishni da’vat etadi.

Innovatsion ta’lim texnologiyasini o’rnini to’g’ri baxolay olishi, ta’lim oluvchining faolligini oshirishi jarayonida uning mustaqil faoliyatini to’g’ri boshqara olishdek mas’uliyatli ishda nazoratni to’g’ri o’rnata bilish va o’quvchini dars jarayonida noaniqlikdan-aniqlikka, oddiydan-murakkabga, bilmaslikdan-bilishgacha bo’lgan yo’lni o’zlarini ta’lim texnologiyalari, o’qitish materiallari tayyorlash ko’rgazmali qurollardan foydalanishda o’yin topshiriqlari bajartirish orqali sinash, kasbiy mahoratlarini oshirib borish, ilg’or tajribalarni o’rganish bilan birga o’qituvchi nazorati asosida o’zini-o’zi boshqarishga o’rgatib borish lozim.





O'qituvchi oldida turgan muammolardan biri o'qituvchi va o'quvchi (bo'lajak tarbiyachi) hamkorligini oshirib borish dars jarayonida hamkorlikda o'qitish, kichik guruhlariga bo'lib o'qitish, didaktik o'yinli texnologiyadan foydalanish, modulli ta'lim texnologiyasi hamda o'quvchilarga insoniyat tarixi davomida yaratilgan bilimlarni yetkazishda kasbiy fanlardan muntazam bilimlar olishlari uchun tegishli shart-sharoit yaratish, zarur axborotlarni tanlay olish, komp'yuter savodxonligini oshirish mustaqil tayyorgarlikka o'rgatish, o'z o'zini boshqarish usullarini amalga oshirgan holda o'quvchining bilim olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish, qiziqishini orttirish, iqtidorini aniqlash va tarbiyachini ta'lim jarayoniga bo'lgan kasbiy qobiliyatini oshirib borishdan iborat.

Zamonaviy tarbiyachi (o'qituvchi-pedagog) ta'lim-tarbiyaviy, rahbarlik, interfaollik, tashkilotchilik, o'quvchilarga tegishli maslahat berish, qobiliyatini oshirib borish, Modul texnologiyasidan foydalanish o'quvchini keng fikrlashga da'vat etadi. Tabiiyalanuvchi bolalar iqtidorini kashf etish, izlab topish, aniqlash alohida mas'uliyatini tarbiyachi zimmasiga yuklaydi. Pedagogik texnologiyada do'stona munosabat o'rnatish pedagogik muloqot tarbiyachini tarbiyalanuvchi bilan erkin fikrlay olishiga imkoniyat yaratadi.

Maktabgacha yoshi - bu bolaning atrofida dunyoni faol o'rganadigan davr. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlarining psixologik rivojlanish xususiyatlariga ega. Yurish boshlaganida, bola juda ko'p kashfiyotlar qiladi, xonada, ko'chada, bolalar bog'chasida joylashgan narsalar bilan tanishadi. Turli narsalarni yig'ish, ularni o'rganish, mavzudan kelib chiqqan tovushlarni tinglash, bu ob'yektning qaysi fazilatleri va xususiyatlari borligini biladi. Ushbu davrda bolaning ingl. -figurativ va ingl. Effektiv fikrlash shakllari yaratilgan. 5-6 yoshligida bola, shimgich kabi, barcha ma'lumotlarni so'radi. Olimlar ushbu yoshlik davrida bolaning bu ma'lumotni esga olishini, bundan keyin u hayotda hech qachon eslamasligini isbotladi. Bola ufqlarini kengaytira oladigan har qanday narsaga qiziqish uyg'otadigan davrdir va bu uning atrofidagi dunyoni qo'llab-quvvatlaydi.

MTT tarbiyalanuvchilari nafaqat bugungi kunda qilayotgan ishidan, balki kelajakda nima qilishidan ham xafa bo'lib, xursand bo'lishadi. Presedrga tegishli bo'lgan har bir narsa - rasm, o'yin, qolib tuzish, onaga yordam berish, uy ishlarini bajarish - yorqin hissiy rangga ega bo'lishi kerak, aks holda narsalar tezda yiqilay yoki umuman bo'lmaydi. Chunki bu yoshdagi bola unga qiziq bo'lmagan ishni bajarolmaydi. Bu asrda, maktabgacha tarbiyachilarning boshqalarga va o'zlariga bo'lgan munosabati muhim ko'rsatkichdir.



Maktabgacha yoshdagi bolalar ko'pincha kamchiliklarini tanqid qilishadi, tengdoshlariga shaxsiy xususiyatlar beriladi, bolalar va kattalar o'rtasidagi munosabatlar, shuningdek, kattalar va kattalar o'rtasidagi munosabatni qayd qiladi. Biroq, ota-onalar bolalarga misol bo'la oladi. Shuning uchun, ota-onalar bolaga ijobiy ma'lumotni kiritish, shaxsiy yoki intellektual ma'lumot bo'lsin, u bolaga qo'rquv, xavotir va haqoratni keltirmasliklari kerak.

Tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi hamkorlik - tabiyachining pedagogik mahoratini oshirib boradi va taxsil oluvchilarning o'quv - bilish faoliyatini takomillashtiradi, ularni ma'naviy, axloqiy, jismoniy va intellektual jihatdan rivojlantirish bilan birga vatanparvarlik fazilatlarini tarkib toptiradi jamiyatdagi o'z o'rnini topishga o'rgatadi.

O'qitishning zamonaviy vositalaridan foydalangan xolda o'quv ta'lim jarayonini yaxshilash, elektron mashg'ulotlar yaratishni o'quv fil'mlaridan foydalanishni, O'zbekistonning madaniyati va zamonaviy yutuqlari bo'yicha elektron manbalar bilan tanishib borish, shu borada tarbiyachi va tarbiyalanuvchi, tarbiyalanuvchi va tarbiyachilar jamoasini hamkorligini oshirish borasidagi ilg'or tajribalarni ommalashtirish maqsadida tarbiyachilar o'rtasida "Eng yaxshi tarbiyachi", "Yilning ilg'or tarbiyachisi", "Eng yaxshi mashg'ulot muallifi" tanlovlarini muntazam o'tkazilishini ta'minlash orqali ilg'or tajribalarni o'rganish maqsadida tarbiyachilar bilan bir oyda bir marta seminarlar, tadbirlar o'tkazib turilishini taklif etaman.

Bundan asosiy maqsad yosh kadrlarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish innovatsion pedagogik texnologiyani dars jarayoniga tadbiq eta bilish, yosh tarbiyachilarni kasbiy mahoratini oshirib borish bilan birga uslubiy kengash ish faoliyatini yanada oshirish bu jarayonda ta'lim oluvchini ma'naviyatini yuksaltirib borishda g'oyaviy, siyosiy, ma'naviy, metodik o'quv qo'llanmalaridan ta'lim sohasida foydalanib, tarbiyachi texnolog oldiga zamon talab qilayotgan "Yetuk mutaxassis"ni tayyorlash vazifasi yuklanadi.

1. Ilg'or pedagogik texnologiya asoslarini o'rgatish bo'yicha amaliy o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish.
2. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida faoliyat yuritishni xoxlovchi pedagoglar guruhini shakllantirish.
3. Elektron mashg'ulotlar, o'qitish materiallari to'plami, o'quv mashg'ulotlar yaratish va ularni tanlovlarini tashkil etish va boshqalarni maqsadga muvofiqdir deb o'ylayman.

Xususan yurtboshimiz ham, Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar va pedagog xodimlar ta'lim jarayonining qatnashchilari hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida vasiylik kengashlari tashkil etiladi, ularni saylash tartibi va ularning vakolatlari maktabgacha ta'lim tashkilotiining ustavlarida belgilanadi.

#### ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 – yil 16 – dekabrda 595 – sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi PF-60. 2022-2026 – yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. 2022-yil 28-yanvar.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 – yil 8 -maydagi 4312 - sonli "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti" 802-sonli Qarori.

5. A'zamova M.N. Maktabga tayyorlov guruhlari tarbiyalanuvchilarida do'stona munosabatlarga asoslangan hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish tizimini takomillashtirish: Pedagogika falsafa doktori (phd) avtoreferati. –Toshkent, 2020.
6. Aliqulova M.Sh. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – bola imkoniyatlari poydevoridir.
7. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini mavzuviy rejalashtirish. Yosh guruhlari bo'yicha. L.Yestafeva, Sh. Nabihanova va boshqalar. T 2018 yil.
8. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv dasturlarini ishlab chiqish".
9. "O'quv jarayonini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida rejalashtirish".
10. "Oilalar va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik".